

## **UMAR HAYYOMNING TA'LIM VA TARBIYAGA OID FIKRLARI**

*Nuriddinova Shahnoza Ilyosbek qizi*

*Andijon davlat chet tillar instituti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada buyuk faylasuf olim Umar Xayyomning ta'lif tarbiyaga oid ilmiy va falsafiy fikrlari bayon qilingan. Maqolada Umar Xayyomning asarlari, ruboiylari va risolalaridagi hozirgi kunda ham muhim bo'lib qolgan fikrlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Umar Xayyom, falsafa, matematik, komillik, falsafiy.

Barchamizga ma'lumki qadim qadimlardan ilm ahli o'zlarining ilmiy qarashlari va yaratgan kashfiyotlari orqali hozirgi zamон тарроққиётига mislsiz hissa qo'shganlar. Shunday kishilardan biri shubhasiz ulug' faylasuf, shoir, munajjim, matematik va tabib bo'lgan G'iyyosiddin Abulfath Umar ibn Ibrohim Xayyom Nishopuriydir. Uning purma'no to'rtliklarida esa ilm ma'rifat bilan, irfon ishq bilan, haqiqat inson tolei bilan shu qadar uyg'unlashib ketganki, bular inson ko'nglida bir butunlikda ta'sir o'tkazib ularni ilm ma'rifat ziyosi bilan yoritib turadi. Xayyomning fikricha, «sog'lom fikr, ziyrak aql va o'tkir zexnga ega bo'lgan» insonni shakllantirishdan iborat bo'lmog'i kerak. «Faqat chuqur zehngina, deb qayd qilgan edi olim, - barkamol qalbni qondira oladigan ilhomga erishishi va uning yordami bilan yuksak aql-idrok farogatini hosil qilishi mumkin». Umar Hayyom Ibn Sino falsafiy ta'lifotining tarafidori bo'lgan. Ibn Sinoning "Asxaviya" ("Nurlanish") asarida inson joni o'limdan keyin ma'dad olamiga qaytadi va u yerda o'zining qilgan yaxshi va yomon ishlarining ta'sirini va kuch-qudratini his qiladi, deyilgan. Ibn Sino bu asarida tanasuh ta'lifotini tan oladi va insonning ruhiy rivojlanish jarayonida uning muhim o'rnini ko'rsatadi. Materiya aylanma harakat jarayonida qatnashganday, ruh ham komillik darajasiga ko'tarilmaguncha, yer va ma'ad

olami o‘rtasida, abadiy qaytish jarayonida qatnashadi. Bu abadiy qaytish va aylanma harakat girdobidan ruhni faqat komillikka erishish ozod qilishi mumkin. Materiya aylanma harakat jarayonida qatnashganday, ruh ham komillik darajasiga ko‘tarilmaguncha, yer va ma’ad olami o‘rtasida, abadiy qaytish jarayonida qatnashadi. Bu abadiy qaytish va aylanma harakat girdobidan ruhni faqat komillikka erishish ozod qilishi mumkin. Umar Xayyom ilmda ham, ijoddha ham o‘zini shayx urrais Abu Ali ibn Sinoning hassos va sadoqatli shogirdi hisoblagan. Ibn Sino asarlarini tushunmagan kishilar ularni izohlash va sharhlashni undan so‘raganlar. Umar Xayomning nuqtai nazaricha, xulq-atvor ikki yo‘l bilan: odat qilib olish yordamida va fikrlash jarayonida yuzaga keladi. Bu yo‘llarning ikkalasi ham bir ishda ahamiyatga ega. Yomon xatti harakatlar odatga kirib qolishi, yomon axloq bo‘lib mustahkamlanib olishi mumkin, xuddi shuningdek “chiroyli” xatti-harakatlar ham “chiroyli” axloqqa aylanishi turgan gap. Bu bilan u insonning axloqiy qiyofasini, uning xarakterini faol ravishda shakllantirish mumkinligini isbotlagan edi.

Olma sardaftari ishqning imlosi,

Yoshlik qasidasin jilva ziyosi.

Ey, ishq olamidan xabarsiz, bilg‘il,

Ishq emasmi asli hayot ma’nosи.

Xususan, ushbu misralarda faylasuf olmani ma’naviyat urug‘iga qiyoslab, ishqni so‘zini ilm ma’nosida ishlatmoqda. Inson qalbida donolik urug‘ini, o‘z-o‘zini anglaydigan muallim qo‘yadi, ammo tuproq sharoitlari va o‘simgiliklarni parvarish qilish shogirdning samimiyligiga bog‘liqdir. Muallimlarning izidan yurib, biz ongimiz tuprog‘iga donolik urug‘ini sepib, o‘zimizni tarbiyalash suvi bilan har kuni sug‘orishimiz kerak. O‘z-o‘zini tarbiyalash o‘z-o‘zini azoblash degani emas. Bu sizga aqlning boshqarib bo‘lmaydigan kuchlarini tashkillashtirish va jamlashga imkon beradigan usul, haqiqiy baxt keltiradigan turmush tarzini rivojlantirish demakdir. O‘z-o‘zini tarbiyalash usullariga qat’iy rioya qilsak, umidsizlikka olib keladigan yomon odatlar va istaklardan xalos bo‘lsakgina haqiqiy baxt va saodat kalitini topamiz. Agar

biz zaif, ziddiyatli va ongimiz tashvishlarga to‘la, suv kabi yerga singib ketamiz. Ammo ma’naviy tarbiya va ilm izlanishida bo‘lsak tabiatning barcha qonuniyatlarini bizning ruhiyatimiz barkamolligiga xizmat qiladi. Kishi dunyoviy istaklarga berilmay vaqtini qadrlasa, ilmni isrof qilmasa, dunyo havaslaridan ilmni ustun qo‘ya olsa, shunda bizning ruhimiz va tushunishimiz barcha yo‘nalishlarda harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zero hayotning asl mohiyati ilm egallashdadir.

Xulosa qilib aytganda, Umar Xayyom insoniyat ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo‘sha oldi, matematika, astronomiya, fizika sohasida bir qator muhim kashfiyotlar qildi. Bularning barchasi o‘rganishga izlanishga va eng asosiysi buyuk faylasuf olim Umar Xayyomning izidan yurishga arziydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Umar Xayyom. Ruboiylar. T., O‘zKP MK nashriyoti, 1981. Kh-davron.uz. Xurshid Davron kutubxonasi.
2. Mirzakarimova M. CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – C. 410-415.
3. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. O‘zbekistonda chiqindilarni qayta ishslash muammolarini o‘rganish va bartaraf qilish //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 11. – C. 78-83.
4. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 12. – C. 321-324.
5. Mirzakarimova M. M. et al. “Avesto” va pedagogik fikrlar rivoji //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 224-228. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6696>
6. Mirzakarimova M. M. et al. Pedagogik mahoratning shakllanshi va rivojlanishi //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 3. – C. 264-269.
7. MADAMINJONOVNA M. M. XORIJY TILLARNI TADBIRKORLIKKA YO‘NALTIRIB O‘QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI //Nova. Pub. – 2022. – C. 1-128.
8. Madaminjonovna M. M. Zamonaviy sharoitlarda umumta’lim fanlarini tadbirkorlikka yo‘naltirib o‘qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4. – C. 216-222.
9. Madaminjonovna M. M. Umumta’lim fanlarini tadbirkorlikka yo‘naltirib o‘qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4. – C. 97-103.

10. Madaminjonovna M. M. K. L. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES. Retrieved from <http://xn--e1aajfpcds8ay4h.com.ua/menus/view/202/>.
11. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 92-94.
12. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. – 2022. – С. 7128-7131.
13. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL "INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY". – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 63-65.
14. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – Т. 5. – №. 3. – С. 15-17.